

Qoraqalpog'iston Respublikasida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 4 591 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 77 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 514 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 6 692,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan 108,7 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 183,4 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 6 509,4 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,8 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 885,3 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 108,0 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 594 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 12 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 582 tani tashkil qildi.

Respublika bo'yicha 2025- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 3 273,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 7,0 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 2 894,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,3 % ga to'g'ri keldi. Respublikada jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,4 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Qonliko'l tumani (104,3 %), Nukus shahrida (69,1 %) va Taxiatioh tumanida (47,7 %) kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 112 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 111 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 5 933,2 mlrd so'mni tashkil qildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,0 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)